

9. Nursultan Paraxatovich Dauletbaev (2024). Morphometric characteristics of leg bones and muscles during postnatal ontogeny of turkeys under different natural conditions literature review. Science and innovation, 3 (Special Issue 47), 698-701. doi: 10.5281/zenodo.13859984

10. Erimov Sirijiddin Farhodovich, Djumaboev Abdurasul Baxt ugli, & Son of Mirzabekov Miyirbek O'mirbek ugli. (2023). «Quyon otodektozi»ning biomorfologik xususiyatlari, uning sistematikadagi o'rni, laboratoriya diginozi. Intent Research Scientific Journal, 2 (6), 132–140.

ZUPTURUMDOSHLAR, MURAKKABGULDOSHLAR, TORONDOSHLAR TURKUMLARIGA MANSUB O'SIMLIKLARNING FARMAKOLOGIK VA TOKSIKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qadirberganov B.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zupturumdoshlar, Murakkabguldoshlar, Torondoshlar, turkumlariga kiruvchi o'simliklarning kimyoviy tarkibi va ta'sir etish mexanizmi bo'yicha meditsina va veterinariya amaliyotida dorivor vositalar sifatida ishlatilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Zupturumdoshlar, Murakkabguldoshlar, Torondoshlar, antatsianlar, leykoantatsianlar, lyuteolin, skutellyarein, apegenin, xoleretik, ekspektorant, flavinoidlar.

Mavzuning dolzarbligi Zupturumdoshlar, Murakkabguldoshlar, Torondoshlar oilasiga mansub dorivor o'simliklarning Dorivor o'simliklari va ulardan foydalanish va O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi kabi kitoblar hamda chet el maqolalarida bu o'simliklarning botanik tavsifi, kimyoviy tarkibi, ishlatilishi, ayniqsa ushbu o'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalar, foydali alkaloidlar, glikozidlar, organik kislotalar, vitaminlar, flavinoidlar, uglevodlar, shilliq moddalar, makro va mikro elementlar va boshqa moddalar mavjudligi keltirilgan [9].

Zupturumdoshlar. Zupturum turkumiga mansub plantogo major.l. katta bargli zupturumning O'zbekistonda 6 ta turi uchraydi va shundan 4 tasi dorivor hisoblanadi [1,5].

Zupturumdoshlarning barglari nashtarsimon, asos qismi tarnovsimon ko'p yillik o't, bo'yi 30-35sm, bir ikki va ko'p yillik turlari uchraydi. Barglari 3-9 tomirli, uzunligi 2-25sm, eni 1.5-14sm, ko'sakchasi tuxumsimon yoki tuxumsimon-konussimon shaklida bo'lib 3-4mmni tashkil etadi. Iyun-sentyabr oylarda gullab urug'laydi. Ariq, yo'l bo'ylarida, daryo va buloqlar bo'ylari, botqoqlik, bog' hamda ekinzorlarda o'sadi [1,5].

Plantago majorl dorivor bo'lib ko'p ishlatiladi. Ushbu ikki tur juda ko'p uchrashi bilan ahamiyatlidir. Asosiy foydalaniladigan qismlari ildiz, barglari, poya va urug'lari hisoblanadi [1,4,9].

Kimyoviy tarkibi: shifobaxsh moddalarga boy masalan, alkaloidlardan plantagonin $C_{10}H_{11}O_2N$, indikain $C_{10}H_{11}ON$, indikamin $C_{19}H_{23}ON$, glikozidlardan

aukubin $C_{15}H_{22}O_9$, flavonoidlardan lyuteolin, skutellyarein, apegenin, olean kislotalari, steroidlar, saponinlar, efir moyi (0.1mg/%), vitamin C (300mg/%), vitamin K (4.5-32.9 mg/%), T-omil achchiq moddalar, oshlovchi va shilliq moddalar, organik kislotalardan fenol, karbol, (ferul, kofein, kumar) kislotalari, polisaxaridlardan (pektin, tanin) benzoy salitsil kislotalari, plantain, karotin, yog'lar, mineral tuzlar, mikroelementlardan Cu, Zn mavjud bo'ladi [4,5,6,7].

Plantago major.L (Zupturum); o'simligining shifobaxshlik xususiyatlaridan foydalangan holda ushbu o'simlikni qismlaridan qaynatma, damlama, sok, tabletka, ko'p komponentli kasha va boshqa dori shakllarida ishlatiladi. Xususan, uning sirop, qaynatma, damlama uchun yig'malari va plantoglyutsit tabletkasi ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosan oshqozon-ichak tizimi kasalliklaridan gastrit, entrit, entrokolit, me'da shirasining kamayishi, o't qopi kasalliklari (xolinsitsit), me'da osti bezi kasalligi (pankreatit), va uning yig'malari yo'talga qarshi hamda balg'am ko'chiruvchi ta'sirlarga ega [3,4,5,6,7].

Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" kitobining II va V kitoblarida ushbu o'simlikning barglaridan yarani bitirish, qon to'xtatish, jigar va buyrak kasalliklari hamda ichak yaralarini davolashda ishlatgan [4,7,8].

Zamonaviy tibbiyotda uni me'da shirasi kamayishi, ko'z yallig'lanishlari, jigar va buyrak kasalliklarini davolashda ushbu o'simlik sharbati shakar yoki asal bilan 1:1 nisbatda kuniga 3-4 qoshiqdan iste'mol qilish o'pka va me'da o'smasi kabi kasalliklarda foyda berishi haqida yozgan [4,5,7].

Murakkabguldoshlar oilasi. Sachratqi turkumiga mansub Cichorium intybus.L. Zangori sachqatri turi hisoblanadi. O'zbekistonda Zangori sachratqining bitta turkumga mansub bitta turi o'sadi. Bu o'simlik ikki yoki ko'p yillik o'tsimon o'simlik, bo'yi 30-100 sm, poyasi tik shoxlangan, ildiz bo'g'zidagi barglari teskari tuxumsimon, cho'ziq patsimon, qirqilgan, gultojlari ko'k rangda bo'lib iyun-oktyabr oylarida gullab urug'laydi. Adir-tog'li hududlarda tarqalgan. Asosiy foydalaniladigan qismlari gullagan paytdagi yer ustki qismlari va ildizi hisoblanadi [1,5,7,9].

Kimyoviy tarkibi: O'simlik o'z tarkibida bir qancha shifobaxsh moddalar, shu jumladan, darmondorilarni saqlaydi. Masalan, glikozidlardan intibin, sikorin, inulin (49%), fruktoza (4.5-9.5mg/%), xlorogen organik kislotalar, oqsil (4%), tanin, vitaminlardan B, B₁, B₂, B₅, B₆, B₉, C, E, K, PP, xolin, yog'lar, polisaxaridlar, flavonoidlar, kumarin, prokateksin aldegid, oshlovchi moddalardan laktutsin, laktukopikrin, taraksasterol va boshqa achchiq moddalar, karotin (0.01mg), askorbin kislota (0.01%), kaliy tuzi, makro va mikro elementlardan K (35mg), Ca (4mg), Fe (0.1mg), Mg (3mg), P (3mg), Na (7mg) kabi birikmalar mavjud [4,5,7,8].

Sachratqi bu o'simlikni tibbiyotda mikroob va yallig'lanishlarga qarshi, o't va siydik haydovchi, tinchlantiruvchi, burushtiruvchi, hamda ishtaha ochuvchi, modda almashinuvini mo'tadillashtiruvchi va terlashni pasaytiruvchi ta'sirlari mavjud. Oshqozon shilliq pardalari, ingichka va yo'g'on ichak, jigar, o't pufagi, buyrak kasalliklari o't va siydik-tosh kasalligi, yurak xastaliklari va shishlarda ishlatiladi.

O'simlik qaynatmasi va gulining damlamasi hazm qilishni yaxshilaydi, oshqozon-ichak yo'llari va taloq sohasidagi kasalliklarni bartaraf etadi, qondagi

qand miqdorini tushiradi, asabiy qo'zg'alishni pasaytiradi. Teri toshmalari, husnbuzar, terining yiringli yallig'lanishlari va ekzemalarda samarali qo'llaniladi.

O'simlikning yer ustki qismi damlamasi jigar sirrozi, gepatit, diabet, stomatit, ingluvit, gingivit angina va tonzilitlar, buyrak kasalliklarida siydik (peshob) haydovchi damlama sifatida ishlatiladi. Yu.N.Nuraliyev ma'lumotlariga ko'ra sachratqi o'simligining farmakologik ta'siri qondagi qand miqdorini kamaytirib, me'da osti bezi langergans orolchasi hujayralarining ish faoliyatini oshiradi [4,5,7,8].

Torondoshlar oilasi, mansub, *Rumex thyrsiflorus* Fengerh otquloq, ko'p yillik o'simlik. Bo'yi 30-75sm, sabzavot ekini sifatida ham ishlatiladi. Barglari ovqatga solib iste'mol qilinadi. Iyun-iyul oylarda gullab urug'laydi. Gullari 2 jinsli, ildiz oldidagi barg plastinkasining tubi yuraksimon, yumaloq yoki ponasimon. Ildizi sershox. Gulqo'rg'onini ichki barglari tekis qirrali yoki notekis tishli, shoxdagi barcha barglari ingichka nashtarsimon, tubi ponasimon cheti jingalak, uzunligi 25sm gacha, to'pguli bargsiz, bir va ko'p yillik o'simliklar hisoblanadi. O'zbekistonda 16 ta turi uchraydi. Turlari ekma, jingalak, qizg'ish, suriya otqulog'i, Drobov otquloqlari kiradi. Ularning asosiy ildizi, poya, barg va urug'laridan foydalaniladi [1,5,9].

Kimyoviy tarkibidagi shifobaxsh moddalardan 0.83-3.16 (4%) antratsen unumlari, antroglukozidlar, flavonoidlardan rutin $C_{27}H_{30}O_{16}$, nepodin $C_{18}H_{16}O_4$, giperin, gilerozid, giperozid $C_{21}H_{20}O_{12}$, antatsianlar, leykoantatsianlar (4.6-17%), oshlovchi moddalar, efir moyi (0.19-95mg/%), qatron, organik kislotalardan olma, limon, oksalat, fenol va karbol kislotalari, qand, kraxmal, antratsen unumlari yig'indisi, frangula-emodin glikozidi, aloy-emodin $C_{15}H_{10}O_5$, xrizofanol, xrizofanien, fission ($C_{15}H_{10}O_4$), karotin, smolalar, pirokatexin unumlari, oksalat va kofein kislotalari, kalsiy oksalat, oqsil, organik Fe kabi moddalar mavjud [4,5,6,7,8].

Otquloq ushbu o'simlikning shifobaxshlik xususiyatlari shundan iboratki, otquloq o'simligining asosan ildiz, poya, barg, va urug'laridan foydalanish mumkin. Undan nastoyka, ekstrakt, quritilgan ildiz kukuni, qaynatma va spirtli yangi damlama, yangi sharbat, infuzion eritma hamda galen preparatlari tayyorlanadi. Oshqozon-ichak tizimi kasalliklarida dizenteriya, kolit, enterokolit, gemokolit, kichik o'lchamlarda ichni qotirish, katta miqdorlarda ichni yumshatuvchi, qo'tir, temratki va boshqa teri jarohatlari hamda yaralarini davolashda ishlatiladi. Uning ishtaha ochuvchi, jigar va yurakka quvvat berish bilan bir qatorda o't qopi kasalligi (xolesistit), gipertoniya va gipertenziya holatlari, qontomirlarni kengaytirish, patogenlar bilan kurashish, nafas olishni yengillashtirish, muskulli a'zolar yallig'lanishlari, bosh og'rig'i, gemoroy, stomatit (gingivit, ingluvit, tonzilit angina) va boshqa bir qator kasalliklarni davolashda ishlatiladi [5,6,7,8].

Ushbu turkum vakillari O'zbekistonning barcha hududlarida tarqalgan eng muhimi ular ildiz poyali ko'p yillik hamda tur soni cheklanmaganligi muhim ahamiyatga ega. Bu o'simliklarning terapevtik ta'sir xususiyati asosan barcha a'zo va tizimlarga umumiy (korelativ) ta'sir etishi, ayniqsa oshqozon-ichak, nafas va qon aylanish tizimlariga davolovchi ta'sir etishi sababli ularning farmakokinetikasi va farmakodinamikasini o'rganish lozim bo'ladi [1,9].

Ushbu o'simliklardan yig'malar, qaynatma, damlama, ekstrakt, sharbat, kukun, tabletka, bo'tqa, infuzion eritma, vitaminlar va boshqa biologik faol moddalar bilan boyitilgan sirop, suspenziya va malham, fitochoylar shaklidagi dori vositalari ustida umuman olganda bu o'simliklar ta'sir xususiyatlari tarkibi bo'yicha ko'pgina olimlar izlanishlar olib borishgan.

Xulosa. Mintaqamizda keng tarqalgan Zupturumdoshlar, Murakkabguldoshlar, Torondoshlar turkumlariga mansub o'simliklarning keng farmakologik xususiyatga ega ekanliklarini e'tiborga olgan holda ulardan yangi zamonaviy dori vositalari ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni taqazo etadi. Chunki ushbu o'simliklarda shifobaxshlik xususiyatlari bilan bir qatorda zaharlilik xususiyatlari ham mavjud ekanligi adabiyotlarda ma'lum.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Hamidov.A. Nabiyeu.M. Odilov.T. "O'zbekiston o'simliklar aniq lagichi" Toshkent 1987.
- 2.Imomaliyev.A. Zikiryo yev.A. "O'simliklar biokimyosi". Toshkent 1978.
- 3.Izbosarov.U.Q. Izbosarov.Sh.U. "Shifobaxsh o'simliklar".
- 4.Muxtarov.M "Ming dardga davo" Nasaf nashriyoti 2009.
- 5.Jo'rayeva.M.A. "Dorivor o'simliklar atlas i. Toshkent 2019.
- 6.Turova.A.D. "SSSRning Dorivor o'simliklari va ulardan foydalanish" Moskva 1967.
- 7.Xolmatov.H.X. Ahmedov.O'.A. Farmakognoziya I-II tom Toshkent 2007.
- 8.Xolida Mirfayoz qizi.Mahkamov.S.M. "Mijozingizni bilib davolaning" Toshkent 1997.
- 9.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi- Toshkent 2005.
10. R.M.Tashtemirov, & N.P.Dauletbaev. Feeding in postnatal ontogenesis of turkeys. Ustozlar Uchun, (2024). 1(1), 32–34. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/01/article/view/1618>
11. Nursultan Paraxatovich Dauletbaev (2024). Morphometric characteristics of leg bones and muscles during postnatal ontogeny of turkeys under different natural conditions literature review. Science and innovation, 3 (Special Issue 47), 698-701. doi: 10.5281/zenodo.13859984
12. Nursultan Paraxatovich Dauletbaev Morphometric characteristics of leg bones and muscles during postnatal ontogeny of turkeys under different natural conditions literature review. Science and innovation, (2024). 3 (Special Issue 47), 698-701. doi: 10. 5281/zenodo.13859984

YIRIK SHOXLI MOLLARDA PODODERMATIT KASALLIGINING ETIOPATOGENEZI, TARQALISHI VA UNI DAVOLASH

Dauletbaev N.P, Tajimuratov Q.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

dauletbaev.nursultan@bk.ru